

BO'LAJAK TARBIYACHILARGA AKMEOLOGIK YONDASHISH ASOSIDA TA'LIM BERISH

Abdullayeva Lola Uchqunovna

Toshkent Davlat Pedagogika universitetining mustaqil izlanuvchisi

Annottatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning, kelajakda o'z kasbiga professional tarzda yondashuvi, bo'lalar, pedagoglar jamoasi va ota-onalar bilan hamkorlik qilish jarayonida muomala madaniyatiga, pedagogik etiketiga va odob-axloq me'yorlariga amal qilgan holda yondashishi to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: akmeologiya, pedagog, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, pedagogik etiketi, muomala madaniyati, odob-axloq, professionalizm, shaxs, jamiyat.

Odamni bolalik davri darajasida fanlar tomonidan o'rganish doirasida bir-biri bilan bog'liq ob'yektiv ravishda pedologiya degan nom mustahkamlangan. Yetuklik darajasidagi katta odamni o'rganish predmeti bo'lgan fanni ko'pincha akmeologiya deb ataladi. Ushbu fan ilmiy bilimning tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnikaviy sohalari to'qnashuvida paydo bo'ldi va vujudga keldi. Va u odamni maqsadga muvofiq ketma-ket intilib, dastlabki, o'rta va keyingi yetukligida individ sifatida (murakkab tirik organizm sifatida), shaxs sifatida (bu holda voqelikni turli tomonlarga bo'lgan munosabatlarni odam tomonidan o'zlashtirishi nazarga olinadi) va faoliyat subyektivi sifatidagi (asosan professional sifatida) odam sifatida yuzaga kelish fenomenologiyasini, qonuniyatlarini mexanizmlarini aniqlab beradi. Shubhasiz odamni ko'pincha fuqaro, umr yo'ldoshi, ota-ona, ma'lum konkret sohani mutaxassisi sifatida yetilganligiga taqqoslab ko'rilganda akmeologiya sohasi bo'yicha ishlayotgan ba'zi bir olimlar katta yoshdagilik tushunchasini yetuklik tushunchasiga aynan qilib qo'yadilar. Ammo bu tushunchalar aynan emas. Akmeologiyada obyektiv va subyektiv omillarga katta e'tibor qaratiladi. Ular bir-

birlari bilan o‘zaro harakatda bo‘lib, katta yoshdagi odamni akme darajasiga erishishiga imkoniyatlar yaratadi. «Akme» tushunchasi yangi ilmiy fanni eng asosiysi bo‘lib, quyidagi uni to‘g‘risida gap boradi. «Akme» termini boshida ko‘proq poyeziyaga oid ijodda nashrlarda qo‘llanilgan. Insonni ontogenezidagi rivojlanishi xususidagi fanni bir bo‘lagini nomini «Akme» termini bilan bog‘laydilar. Olimlar katta odamni rivojlanishini kompleks o‘rganadigan xuddi shu fanni akmeologiya deb atadilar. Ular ham sobit qadamlilik va qattiq turib yotilgan individni o‘z aloqalariga voqelik bilan boy shaxs va faol arbob, professional sifatida namoyon etadi deganlar inson ontogenezida keyingi bosqichlarida ko‘rinadigan va uni yetuklik bosqichigacha shakllanadigan katta odam o‘zini individual shaxsiy va subyektiv rivojiga ko‘tarilib boradigan cho‘qqini, ilmiy maktabning bu namoyondalari ko‘pincha kulminatsiya yoki optimum deb ataydilar. Akademik B.Gananyevni ilmiy maktabida odamni ontogenezida uni rivojlanish jarayonini barcha tashkillovchilarini yoritishda kompleks yondashuv qo‘llaniladi va shunga ko‘ra bir yosh darajasidan ikkinchisiga o‘tishda odamni ruhiyatida va ichki dunyosida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarini kuzatganda ushbu o‘zgarishlarni sabablarini chuqurroq tushuntirish uchun psixologiya faniga yaqin fanlar qo‘llanishga jalb etiladi. Odamni ham avvalgi yoshidagi darajasidagi mikro – akmesini egallashi davomida bo‘layotgan katta odamni o‘zini akmesiga yoki optimumiga harakati ham kuzatiladi. Demak shu katta akme o‘zini barcha xarakteristikalarini bilan ko‘p yo‘nalishi va ko‘p darajali ko‘riladi; chunki u ko‘plab obyektiv va subyektiv jarayonlar va holatlarni o‘zaro harakati natijasi sifatida odamni o‘zini shaxsiy hayot ijodini xam o‘z ichiga oladi. Akmeologiya tomonidan uning mohiyati tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnikaviy fanlar bilan yaqin hamkorligida ochib beriladi. Hozirga kelib, yuqorida predmeti ochib berilgan umumiy akmeologiyadan tashqari har doim ko‘p tomonli aspektli xarakterga ega bo‘lgan odamni konkret faoliyat sohalarida professional shakllanish va rivojlanish masalalari munosabati bilan akmeologiyaning yangi boshqarish, pedagogik, harbiy, sport va boshqa tarmoqlari shakllanmoqda. Bugungi kun tarbiyachilari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har bir yosh guruhlarida bolalarga ta’lim –

tarbiya jarayonida yuqoridagi barcha fanlardan olgan bilimlaridan foydalanib o'zlarining kreativligini ishga solgan holda amalga oshirishlari lozim. Tarbiyachilarning eng ahamiyatga ega jihati bu muomala madaniyati hisoblanadi. Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri - muomala odobi. U mohiyatan o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir - biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir - biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmona yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda. Muomala odobi boshqa kishilar qadr - qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy me'yoriy talablarni bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sarmazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng muhimi shirinsuhanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, hushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi. Axloqiy madaniyat yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri, bu – etiket. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zni tutish qonun - qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir hil qoidalashtirib qo'yilgan hatti - harakatni taqozo etadi. Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga etib, ma'lum bir kasbni egallagach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar, tarbiyachilarning ish faoliyatida esa tarbiyalanuvchilar ya'ni bolalar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak

shakllaridan biri, uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rnini yuksak. Shu bois bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda kasbiy odobga ko'proq ahamiyat berish joiz. Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot - mamotlari, sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalari o'z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga ma'lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarrohnini olaylik. Bulardantashqari, tarbiyachilik odobi borki, ular jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni ham aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun - qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, tarbiyachilik odobidagi ba'zi nuqtalarga tuxtalaylik. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchilariga e'tiborsiz, qo'pol munosabatda bo'lishi, o'ziga ishonib topshirilgan guruh bolalarining qarashlari, orzu - istaklariga sovuqqon qarashi odobsizlik va ma'suliyatsizlikka kiradi balki Vatan va farzandlar kelajagiga ham xiyonat tarzida baholanishi mumkin. Ba'zan kasbiy odobni kasbiy axloq deb atalishi ham shundan. Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba'zilar o'ylaganidek, axloqshunoslikning mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o'rganish kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o'rin egallayajak. Zero kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o'zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma'naviy hodisa sifatida baholanishi lozim. Tarbiyachi halollik, rostgo'ylik, axlokiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlarga ega bo'lishi pedagogik odobining muhim talab- qoidasidir. Tarbiyachi deyarli har kuni bolalar bilan uchrashadi, savol- javob qiladi, ularning yaxshi xulqi, ezgu ishlarini ma'qullaydi, bilimni baholaydi, rag'batlantiradi, nojo'ya xatti - harkatlarini tushuntirish yordamida bartaraf etishga harakat qiladi. Albatta, tarbiyachining fikri, mulohazalarida nisbiylik, sub'ektivlik alomatlar mavjud. U hammaga aynan birdek to'g'ri

munosabatda bo'la olmasligi mumkin, lekin u hamma tarbiyalanuvchilarga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchaning ishonchi komil bo'lmog'i lozim. Guruhda tarbiyachi "yaxshi ko'radigan", "yomon ko'radigani" bor degan taassurot tug'ilmasligi kerak. Haqiqatdan, tarbiyachi yoshlarga ta'lim - tarbiya beruvchi kishi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida shunday yozilgan: "Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega". CHunki ta'limi sohasida o'rta qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Har qanday mutaxassis odob-ahloq namunalariga ega bo'lishi tabiiy, lekin pedagogik odoblilik mutlaqo o'zgacha holdir. CHunki tabiatga, jamiyatga, notanish kishilarga, jism va ashyolarga, o'z-o'ziga munosabatda haqiqiy mezon rolini bajaruvchi qobiliyatga ega bo'lishlik aynan tarbiyachi shaxsida mujassamlashadi. Pedagogik nazokat etnopsixologik his-tuyg'ulari, milliy xarakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalari, qonuniyatlari va ko'nikmalaridan me'yoriy ravishda maqsadga muvofiq tarzda foydalanishda o'z aksini topadi:

- emostional his-tuyg'ular, kechinmalar, stress va affektiv holatlar xossalari, chegaralariga batamom rioya qilish;
- xulq-atvor malakalarini amaliyotda oqilona qo'llash;
- bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar qilishdan o'zini tiyish;
- nutq madaniyatidan tashqari chiqmaslik, shaxsiyatga tegadigan iboralar ishlatmaslik, qo'pol va dag'al so'zlar qo'llamaslik;
- hissiy, aqliy bilish jarayonida muayyan me'yorlarga asoslanish, manmanlikni namoyish etmaslik;
- bolalar va pedagoglar jamoalari bilan, ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatga kirishishda rasmiy, qat'iy ishbilarmonlik uslublariga asoslanish va hokazo.

Tarbiyachi - ziyolilar ichida ma'naviy dunyosi muayyan darajasi bilan tafovutlanib, ko'rsatkichi bo'yicha ancha yuksaklikka ega inson. Uning bu darajaga erishishi manbalari - pedagogning kundalik, ijodiy izlanish faoliyatining

ko‘rinishidan, ijtimoiy status va rolni qat’iy ijro etishdan iborat. Tarbiyachining kasbiy mahoratidan tashqari, uning siyosiy, iqtisodiy, tarixiy bilimlarga ega bo‘lishidek zaruriyati, ehtiyoji, imkoniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- *iste’dod nishonalari;*
- *uquvlilik;*
- *qobiliyat;*
- *iste’dod;*
- *oila tarbiyasi sharoiti;*
- *o’quv yurti;*
- *o’z xatti-harakati.*

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- *ijodiy individuallik;*
- *o’zining o’sish va takomillashish jarayoni;*
- *o’z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.*

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- *fikrining ravonligi;*
- *fikrni maqsadga muvofiq yo’llay olishi;*
- *o’ziga xoslik (originallik);*
- *qiziquvchanlik;*
- *farazlar yaratish qobiliyati;*
- *xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).*

Shuning uchun ham bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasidagi mutaxassislarni tarbiyalashda yuqorida ko‘rsatilgan sifat va fazilatlar har bitta fanni o‘qitish jarayonida fan mavzulariga mutanosib tarzda tushuntirib hayotiy misollar yordamida mustahkamlab boriladi. Prezidentimizning “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini

yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq talabalarning haftalik o'quv mashg'ulotlar "4+2" jumladan darslarning 4 kuni OTM da,2kuni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi ham,bo'lajak mutaxassislarning nazariya va amaliyotda olgan bilimlarini parallel olib borish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.ДеркачА.А.Педагогическаяакмеология: учебноепособие/А. А. Деркач, О. С.Анисимов. – М.,РАГС. 2010.290.-стр.
- 2.ДеркачА.А."Акмеология"М.; РАГС, 2002. 256-стр.
- 3.ДеркачА.А., ЗаикинВ.Г.АкмеологияМ.; РАГС, 2003.310-стр.
4. Акрамова, D. (2022). BO'LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
5. Акрамова, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
6. Ergashevna, A. D. (2023). TALABALARDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOSLASHUVCHANLIK MECHANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH TECHNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH BUGUNGI MUOMMO SIFATIDA. *PEDAGOGS jurnali*, 26(1), 13-17.
7. Ф Абдиева МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ *Science and innovation* 1 (B8), 2154-2156
8. ФФ қизи Абдиева МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ РАЎБАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ ИНТЕРНАЦИОНАЛ СОНФЕРЕНСЕС 1 (2), 397-400